

Marhum shoir Abdulla Oripov hayoti va ijodi



Foto: AbdullaOripov.com

Abdulla Oripov 1941 yil 21 martda Qashqadaryo viloyati Koson tumani Neko'z qishlog'ida dunyoga keldi. 1958 yilda o'rta mакtabni oltin medal bilan tamomlagan Oripov Toshkent Milliy universitetining jurnalistika fakultetiga o'qishga kirib, uni ham 1963 yilda imtiyozli diplom bilan yakunlaydi. «Yosh gvardiya» (1963-69), G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotlarida muharrir (1969-74), «Sharq yulduzi» jurnalida adabiy xodim, bo'lim mudiri (1974-76), O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi (1976-82), mas'ul kotib (1985-88), Toshkent viloyat bo'limida mas'ul kotib (1982—83), «Gulxan» jurnalida muharrir (1983-85), 1996 yildan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasi Mualliflik huquqini himoya qilish davlat agentligi raisi lavozimlarida faoliyat yuritgan.



Foto: AbdullaOripov.com



Foto: AbdullaOripov.com

Shoir va jamoat arbobi, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning «Tilla baliqcha», «Men nechun sevaman O'zbekistonni» singari dastlabki she'rlari talabalik yillarida yozilgan va o'zbek she'riyatiga yangi, iste'dodli, o'ziga xos ovozga ega shoirning kirib kelayotganidan darak bergen. Ko'p utmay, «Mitti yulduz» (1965) ilk she'rlar to'plamining nashr etilishi she'riyat muxlislarida paydo bo'lgan shu dastlabki tasavvurning

to'g'ri ekanligini tasdiqlagan. Shundan keyin shoirning «Ko'zlarim yo'lingda» (1966), «Onajon» (1969), «Ruhim», «O'zbekiston» (1971), «Xotirot», «Yurtim shamoli» (1974), «Yuzma-yuz», «Hayrat» (1979), «Najot qal'asi» (1981), «Yillar armoni» (1983), «haj daftari», «Munojot» (1992), «Saylanma» (1996), «Dunyo» (1999), «Shoir yuragi» (2003) singari she'riy kitoblari nashr etilgan.



Foto: AbdullaOripov.com



Foto: AbdullaOripov.com

Oripov o'zbek she'riyatiga o'tgan asrning 60-yillarida sobiq sovet jamiyatida esa boshlagan yangi shabadaning elchisi sifatida kirib keldi. U dastlabki she'rlaridan boshlab milliy she'riyatda yangi poetik tafakkurning qaror topishi yo'lida ijod qildi; turmushda paydo bo'la boshlagan yangicha qarashlar, kishilarning ruhiy olamidagi evrilishlar, fikr va xatti-harakat erkinligiga bo'lgan ehtiyoj Oripov she'rlarining g'oyaviy mundarijasini belgilab berdi.



Foto: AbdullaOripov.com

Oripovning dastlabki she'rlaridagi romantik kayfiyat asta-sekin o'z o'rnnini falsafiy mushohadalarga bo'shatib, shoirning hayotda ro'y berayotgan voqeа va hodisalarga munosabati faol tus oldi. Shu ma'noda «Tilla baliqcha», «Qo'riqxona», «Genetika», «Olomonga» kabi she'rlar Oripovning lirik she'riyat ufqlarini hayot muammolari tasviri hisobiga kengaytirib borayotganidan darak berdi. Xuddi shu narsa Oripovning doston janriga murojaat etishi va liro-epik tasvir imkoniyatlaridan samarali foydalanishiga sababchi bo'ldi. Abdulla Oripov «Jannatga yo'l» (1978), «Hakim va ajal» (1980), «Ranjkom» (1988) kabi dostonlarida ma'naviyat masalalariga alohida e'tibor berib, kishilarning ruhiy olamidagi ayrim qusurlar bilan ilmiy-texnik taraqqiyot va tafakkurning parvozi o'rtasidagi ziddiyatni ochib tashladi.



Foto: AbdullaOripov.com

Umuman, Oripovning she'r va dostonlarida olg'a surilgan ma'naviy muammolar mustaqillik davrida, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etib, shoirning xuddi shu masalalar tasvirida o'z davriga nisbatan (ularning aksari 90-y.larga qadar yozilgan) ilg'orlab ketganini namoyish etdi. Uning ijodida, bir tomonidan, G'afur G'ulom lirkasiga xos falsafiylik ko'zga tashlansa, ikkinchi tomondan, Hamid Olimjon she'rlariga xos musiqiy ravonlik va badiiy soddalik aks etib turadi. Mazkur 2 manba Oripov she'rlerida o'zaro tutashgan holda orifona she'riyatning asosiy xususiyatlarini ifodalab keladi.



Foto: AbdullaOripov.com

Shoirning so'nggi yillar lirkasida tuyg'u va kechinmalar tasviri susaymagan holda yana bir muhim fazilat bor. Bu, Oripov she'rlariga liro-epik tasvir unsurlarining ko'plab kirib kelishidir. U mustaqillik yillarda adabiyotning rang-barang tur va janrlarida ijod eta boshladi. Shu davrda tarixiy adolatning tiklanishi, o'tmishda yashagan sarkardalar va allomalar xotirasining e'zozlanishi Oripovni Amir Temurning O'rta Osiyo xalklari tarixiy taqdirda o'ynagan buyuk rolini ko'rsatuvchi «Sohibqiron» she'riy dramasini (1998) yozishga ilhomlantirdi. Xalq shoiri bu asarida qariyb uch asr davomida hukm surgan qudratli Temuriylar sultanatining asoschisi va XV asr Sharq Uyg'onish davrining boshlanishiga ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sharoit yaratgan Amir Temur obrazini yorqin gavdalantirib berdi. Mazkur asar respublikaning barcha yirik teatrлari va qardosh mamlakatlar sahnalarida katta muvaffaqiyat bilan o'ynaldi.



Foto: AbdullaOripov.com



Foto: AbdullaOripov.com

Abdulla Oripov O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasining matni muallifi ekani bilan ham xotiralarda saqlanib qoladi. U Navro'z va Mustaqillik bayramlarini o'tkazish bo'yicha yozilgan aksariyat ssenariyalar muallifidir.

Oripov Yozuvchilar uyushmasiga raislik qilgan kezları O'zbekiston eng yangi tarixi adabiy jarayoniga rahbarlik qildi. Uning she'riyati Muhammad Yusuf kabi ko'plab shoirlar ijodining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan.



Foto: AbdullaOripov.com



Foto: AbdullaOripov.com

Abdulla Oripov jahon adabiyoti durdona asarlarini o'zbek kitobxonlariga yetkazishda ham samarali mehnat qildi. U Dante «Illohiy komediya»sining «Do'zax» qismini, A. S. Pushkin, N. A. Nekrasov, T. G. Shevchenko, L. Ukrainka, R. Hamzatov, Q. Quliyev va M. Bayjiyev asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi. O'z navbatida, uning asarlari ham rus, ingliz, bolgar, turk, ukrain, turkman, ozarbay-jon kabi ko'plab xorijiy

tillarga tarjima qilingan. 1990 yilda O'zbekiston Oliy Kengashi, 1995 yilda O'zbekiston Oliy Majlisi deputatligiga saylandi. Abdulla Oripov Kaliforniya (AKSh) Fan, ta'lif, sanoat va san'at xalkaro akademiyasining haqiqiy a'zosi. Soka universiteti (Yaponiya) professori. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Bosh tahrir hay'ati a'zosi, Hamza nomidagi hamda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotlari laureati edi.



Foto: AbdullaOripov.com

Marhum shoir, O'zbek zamonaviy she'riyatining "Navoiy"si Abdulla Oripovni Alloh rahmat etsin, yaxshi amallarini o'ziga hamroh aylasin!

Abdulla Oripov she'riy to'plamidan quyidagi telegram kanalga a'zo bo'lib bahramand bo'ling

<https://t.me/abdullaorif>

Manba: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi